

Toshkent shahar Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik bosh boshqarmasining 2024- yil 15-
may 136-son buyrug'iga
1- ilova

**Toshkent shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, hududiy
bo'limlar va tasarrufiy tashkilotlarning xarid qilish tartib-taomillarida kontragentlarni
tekshirish to'g'risidagi**

YO'RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1.1 Toshkent shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, hududiy bo'limlar va tasarrufiy tashkilotlarning xarid qilish tartib-taomillarida kontragentlarni tekshirish to'g'risidagi Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-sonli Farmoniga, 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga, "O'zmilliyBosh boshqarma" AJ korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati"ga (№107-v 28.12.2021y) hamda "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimlari" (ISO 37001:2016) xalqaro standartidan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan tavsiyaviy bo'lgan "Davlat organlari va tashkilotlari, uning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma"ga asosan ishlab chiqildi.

Mazkur Yo'riqnoma Toshkent shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, hududiy bo'limlar va tasarrufiy tashkilotlar (keyingi o'rinlarda - **Bosh boshqarma**) tomonidan xarid qilish tartib-taomillari, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning (keyingi o'rinlarda Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish) asosiy talablari, tartibi va usullarini belgilaydi.

Mazkur yo'riqnoma talablarini buzgan shaxslar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Ushbu yo'riqnoma Bosh boshqarma boshqaruvi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

1.2 Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Xarid jarayonlari ishtirokchilarining takliflari amaldagi qonun va qonun osti hujjatlariga zid kelmasligi;
- Bosh boshqarma xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;

- Xarid jarayonlarida inson omilini kamaytirish, shaffoflik va ochiqlik tamoyillariga rioya etish;

- Kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

1.3 Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish xaridning barcha ishtirokchilari, shu jumladan, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtainazaridan ham amalga oshiriladi.

1.4 Tekshiruv ushbu Yo'riqnomaning 1.6 va 1.7-bandida ko'rsatilganlardan tashqari barcha yangi kontragentlarga nisbatan, shuningdek amaldagi kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

1.5 Ushbu Yo'riqnomaning 1.6 va 1.7-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, kontragent tekshiruv natijalari bo'yicha ma'lumotlarni olmasdan turib shartnomani imzolash va (yoki) to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

1.6 Elektron do'kon va auksion shaklida o'tkaziladigan xaridlar bo'yicha kontragentlar tashabbuskor bo'linma tomonidan tekshiriladi.

1.7 Shuningdek, tekshiruv quyidagi kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:

a) Bosh boshqarma markaziy apparati bilan filiallar o'zaro shartnomaviy munosabatga kirishayotgan bo'lsa;

b) Kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, issiqlik ta'minoti, muhandislik-texnika ta'minoti, suv ta'minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish (ko'mish) tarmoqlariga ulanish), shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo'yicha yetkazib beruvchi hisoblangan kontragentlar;

c) O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan kontragentlar. Bunda kontragentlar amaldagi Tabiiy monopoliya sub'ektlarining Davlat reestridagi korxonalar ro'yxati orqali tekshiriladi.

1.8 Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

Xarid komissiyasi - "Davlat xaridlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni va Bosh boshqarma tomonidan xaridlarni o'tkazish uchun tuzilgan kollegial organ.

ijrochi - Bosh boshqarmada tuzilgan xarid komissiyasi a'zolari (Bunda ijrochi tomonidan kontragentlarni tekshirish "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuniga asosan olib boriladi). Ijrochi faqatgina eng yaxshi takliflarni tanlash va tender savdolari ishtirokchilarining ma'lumotlarini tekshiradi.

To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha kontragentlarni tekshirish tashabbuskorga yuklatiladi.

kontragent - Bosh boshqarmaning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs; **kontragent/kontragentning benefitsiar egasi** - kontragentning xususiy egasi bo'lgan yoki

ushbu Kontragent uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda uning xarakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs; **korrupsiyaviy xarakatlar** - xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish; **manfaatlar to'qnashuvi** - Bosh boshqarma xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Bosh boshqarma manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

elektron do'kon — davlat xaridlarining elektron tizimidagi maxsus maydonda savdolarini elektron shaklda amalga oshirishni nazarda tutuvchi, maxsus talablar qo'yilmaydigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlarini amalga oshirishning raqobatli usuli; **maxfiy axborot** - bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot; **tashabbuskor** - Bosh boshqarma tarkibiy bo'linmasi;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi - Bosh boshqarma xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog'langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko'rinishidagi shaxsiy foyda olish;

G'olib -xarid qilish tartib-taomillari yakunlariga ko'ra taklifi eng maqbul deb topilgan xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi.

II. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan

hujjatlar va axborot manbalari 2.1

III. Xarid jarayonlari doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish xarid qilish tarti b-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

2.2 Xarid jarayoni doirasida qonunchilik va Bosh boshqarmaning ichki hujjatlari tomonidan o'rnatilgan muddatlarga rioya qilinishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish uchun ma'sul - tegishli Xarid komissiya yoki shartnoma tashabbuskori (agar xarid to'g'ridan- to'g'ri shartnoma bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa)hisoblanadi.

2.3 Kontragentlar tekshiruvi ijrochi tomonidan hujjatlar tashabbuskoridan ushbu Yo'riqnomaning 2.4-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan sanadan 5 kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

2.4. Kontragentlarni tekshirish Xarid qilish hujjatlarning malaka talablarida ko'rsatilgan shakllar bilan amalga oshiriladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- 1- Shakl: Xarid komissiyasi nomiga ariza;
- 2- Shakl: Kafolat xati;
- 3- Shakl: Ishtirokchi haqida umumiy ma'lumot;
- 4- Shakl: Moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot;
- 5- Shakl: Korrupsiya holatlarini oldini olish to'g'risida ariza.

2.5. Kontragentning malaka hujjatlarini tekshirish chog'ida ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, Xarid komissiyasi a'zolari qaroriga ko'ra xarid savdolaridan Qonun hujjatlarida ko'rsatilgan metodlarga asosan chetlatishi mumkin.

2.6 Kontragentdan olingan barcha hujjatlar kontragentning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Taqdim etiladigan hujjatlar tekshirish davrida amal qilayotgan bo'lishi kerak.

2.7. Kontragentni tekshirish uchun ma'lumotlar to'plash ijrochi tomonidan kontragent, uning egalari va rahbarlari, faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega bo'lish, shuningdek, undan olingan hujjat va ma'lumotlarning ishonchliligi, shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo'yicha belgilar yo'qligini (soxtalashtirish alomatlarini mavjud emasligini) baholash uchun amalga oshiriladi.

2.8. Kontragentlarni tekshirish doirasida ijrochi quyidagilarni tahlil qiladi:

- kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar;
- ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar. Ijrochi 1-ilovada ko'rsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu ro'yxat tavsiyaviy bo'lib, zaruriyat tug'ilganda ijrochi boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;
- tegishli tashkilotlarga rasmiy so'rovnomaga yuborish yo'li bilan olingan hujjatlar.

2.9 Kontragentni tekshirish uchun ishlatilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

IV. Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi

1) Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi: Kontragentning xarid savdolarida taqdim etilgan ma'lumotlari xarid qilish hujjatlaridagi malaka talablariga mos kelishligi.

2) Xarid komissiyasi a'zolariga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshirish.

Ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy hisoblanadi. Tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati har bir alohida holatda ijrochining xarid komissiyasi qarori bilan kelishilgan talabi bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo'nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo'lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

3.1 Ijrochi foydalanish mumkin bo'lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 3.4-3.6-bandlarda ko'rsatilgan har bir yo'nalishga nisbatan quyidagi kontragentning tekshiruv natijalari to'g'risida ma'lumotlarning boryo'qligini belgilaydi.

3.2 Ushbu Yo'riqnoma amalga kiritilgunga qadar shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan Bosh boshqarmaning amaldagi kontragentni tekshirishda bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu kontragent bilan o'zaro harakat tajribasi va uning Bosh boshqarma bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarishdagi halolligini tekshiradi.

3.3 Kontragentning xarid savdolarida taqdim etilgan ma'lumotlari xarid qilish hujjatlaridagi malaka talablariga mos kelishligini ijrochi quyidagi ma'lumotlar orqali aniqlaydi:

1- Shakl: Xarid komissiyasi nomiga ariza. Arizada xarid jarayonida ishtirok etish taklifi beriladi.

2- Shakl: Kafolat xati¹. Kafolat xatida kontragent:

- faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o'ziga nisbatan joriy etilgan Bosh boshqarmarotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

- soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

- insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi.

3- Shakl: Ishtirokchi haqida umumiy ma'lumot:

- Ishtirokchining nomi;

- Ishtirokchining mulk shakli;

- Ishtirokchining yuridik manzili;

- Ishtirokchining telefon raqami;

- Ishtirokchining STIR;

- Ishtirokchining Bosh boshqarma va hisobraqami;

- Ishtirokchining asosiy faoliyati;

- Ishtirokchining Rahbari;

- Ishtirokchining ta'asischisi FIO va ulushi %;

4- Shakl: Moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot. Ishtirokchining oxirgi 3 yildagi moliyaviy ma'lumotlari aks etgan bo'ladi.

5- Shakl: Korrupsiya holatlarini oldini olish to'g'risida ariza. Ishtirokchi tomonidan korrupsiya xolatlariga va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik to'g'risida ariza topshiradi.

3.4 O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday

shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

3.5 Ijrochi manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi yoki yo‘qligini quyidagi mezonlar bo‘yicha tekshiradi:

kontragent va Xarid komissiyasi a‘zolari o‘rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi (Xarid komissiyasining Manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligini tekshirishni ijrochi kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarni Xarid komissiyasi a‘zolari tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar bilan solishtirish orqali amalga oshiradi); manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar.

V. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hujjatlashtirish

4.1. O‘tkazilgan tekshiruv natijalari bo‘yicha ijrochi ushbu Yo‘riqnomaga 2-ilovada keltirilgan shaklda ma‘lumotlar beradi. Kontragent tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga ijrochi xarid xujjatlari malaka talablari shakllarini elektron² yoki yozma ko‘rinishda ilova qiladi.

4.2. Elektron do‘kon va to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish jarayonida aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi haqida tashabbuskor Axborot va Bosh boshqarma xavfsizligi departamenti Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish Boshqarmasini xabardor qiladi.

4.3. Kontragent va Bosh boshqarma xodimi o‘rtasida real manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan taqdirda, u xarid jarayonini davom ettirishdan oldin Bosh boshqarmaning xududiy va tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizomga asosan tartibga solinishi kerak. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish imkoni bo‘lmagan taqdirda kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi lozim.

4.4. Agar to‘g‘ridan-to‘g‘ri haridlar doirasida kontragentni tekshirish natijalariga ko‘ra, korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligini yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yo‘qligini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar aniqlansa, u holda kontragent bilan shartnoma tuzish ehtimoli haqidagi qaror Bosh boshqarma boshlig‘i tomonidan qabul qilinadi.

4.5. Kontragent tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to‘g‘risidagi qaror qabul qilish, shartnoma bo‘yicha kelishish va to‘lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar paketiga qo‘shib qo‘yiladi.

4.6. Tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma chiqqanidan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay Axborot va Bosh boshqarma xavfsizligi departamenti Komplaens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda - **Vakolatli organ**) bu haqidagi ma‘lumotni ushbu yo‘riqnomaning 3-ilovaga muvofiq shaklda Kontragentlarni tekshirish reestriga kiritadi.

4.7. Kontragentlarni tekshirish reestri, tashabbuskor bo‘linmaning tovar yoki xizmatlarni sotib olish haqidagi tasdiqlangan bildirgi nusxasi, texnik topshiriq nusxasi, kontragentni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumot, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar(schet faktura) hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma‘lumotlar nusxalari kontragent bilan shartnoma munosabatlari to‘xtatilgan kundan boshlab kamida 3 (uch)

yil Vakolatli organ tuzilmasida saqlanadi.

4.8. Kontragentlarni tekshirish reestri tashabbuskor bo‘linmaning tovar yoki xizmatlarni sotib olish haqidagi tasdiqlangan bildirgi nusxasi, texnik topshiriq nusxasi, kontragentni tekshirish natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumot, kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda ijrochi tomonidan tegishli manbalardan olingan ma‘lumotlar nusxalari konfidensial bo‘lib, Bosh boshqarma xodimlariga xizmat vazifalari

va vakolatlari bunday ma‘lumotlardan foydalanishni o‘z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

VI. Yakuniy qoida

5.1 Kontragentlarni tekshirish jarayoni doimiy ravishda Vakolatli organ tomonidan monitoring qilib boriladi.

5.2 Davlat xaridlari va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning ushbu yo‘riqnomaga ta‘sir qiladigan normalari o‘zgarganda, ushbu Yo‘riqnoma qayta ko‘rib chiqililadi.

*Bosh boshqarmada
kontragentlarni tekshirishga oid
yo'riqnomaga*

1-ilova

Kontragentlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi - <https://fo.birdarcha.uz/s/ru landing>
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi - <http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz>
4. O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastr boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz ijrochilarning yagona reestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma'muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Ofshor zonalar ro'yxati- <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-othermonitored-jurisdictions/documents/call-for-action-februarv-2021.html>
9. AQSh maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro'yxati (yoki WorldCheck ma'lumotlar bazasi)- <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>
10. Tabiiy monopoliya sub'ektlarining davlat reestri <https://data.egov.uz/uzbKr/data/610b8a641a64fdd0373a8f56>
11. Moliya vazirligi korporativ axborot yagona portali <https://openinfo.uz/>
12. Korxonalar va tashkilotlar, tovar belgilari haqida ma'lumot <https://orginfo.uz/>

Ushbu ro'yxat ijrochi tomonidan tekshirish uchun tavsiya etilgan manbalar ro'yxati bo'lib, zarur bo'lganda kengaytirilishi mumkin.

Bosh boshqarmada kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomaga 2-ilova

Kontragentni tekshirish haqidagi ma'lumotnoma

1. Ishtirokchining nomi
2. STIR
3. Ro'yxatga olingan sana
4. Yuridik va manzili
5. Rahbarning FISH
6. Ta'sischilarning FISH
7. Xizmat _____ ko'rsatuvchi _____ Bosh _____ boshqarma nomi va hisobraqami

Kontragentni tekshirish haqidagi ma'lumotnoma

			1
8. Ishtirokchining asosiy faoliyati xarid predmetiga mos keladi Soliqlar va boshqa majburiy	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>	
9. to'lovlarni to'lashda qarzdorliklarning yo'qligi Ishtirokchiga nisbatan joriy	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>	
10. etilgan qayta tashkil etish, tugatish (likvidatsiya), Bosh boshqarmarotlik tartib-taomillarining yo'qligi Insofsiz ijrochilarning yagona	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>	
11. reestrda ishtirokchi haqida yozuvning yo'qligi Ishtirokchi xaridning boshqa	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>	
12. ishtirokchilari bilan affillanmagan Manfaatlar to'qnashuvi /	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>	
13. ishtirokchining bilan affillanganligi Xarid komissiyasi a'zolari haqida ma'lumot Korrupsiya holatlarini oldini	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>	
14. olish to'g'risida ariza. Malaka -Shakliga asosan barcha talabining 5 so'ralgan talablarga muvofiqligi	<i>Ha</i>	<i>Yo'q</i>	

15 Ma'lumotnomaga ishtirokchilarning malaka talablari bo'yicha 1-5 Shaklda topshirilgan hujjatlar ilova qilinadi.

³ Kontragentlarni tekshirish haqidagi ma'lumotlar faqatgina Eng yaxshi takliflarni tanlash va tender ishtirokchilarining malaka va texnik talablarning barchasiga javob bergan ishtirokchilarga nisbatan qo'llaniladi va ishtirokchilar tomonidan topshirilgan hujjatlar asosida tekshiriladi.

Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan xodimlar haqida ma'lumotlar

F.I.Sh.

Lavozimi

Ma'lumot tuzilgan sana

Lotning raqami

Imzo

Bosh boshqarmada
kontragentlarni tekshirishga oid
yo'riqnomaga 3-ilova

№	Tekshirish so'rovi olingan sana	Ijrochi	Tashabbuskor (FISH, lavozimi va bo'limi)	Kontragent nomi	Kontragentning STIRi	Taqdim etilgan hujjatlar	Shartnoma munosabatlari o'rnatishning maqsadi	Oldingi tekshiruvlar haqida ma'lumot (sanasi, ijobiy/salbiy ma'lumotnoma / dastlabki tekshirish)	Aniqlangan xavflar	ma'lumotnoma sanasi	Izohlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1											
2											
3											
4											
5											

Xarid jarayonlari ishtirokchilarini/kontragentlarni tekshirish reestri